



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



No16
2 июнь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
24-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
16-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-24**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
16-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-24**

ТОШКЕНТ-2020

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 16-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрел 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 29б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барноҳон Одилжонова (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1.Нутфуллоев Г.С., Исматуллаев Н.А. ДРОБЛЕНИЯ МАССИВА РАЗНОПРОЧНЫХ ГОРНЫХ ПОРОД КУМУЛЯТИВНЫМИ ЗАРЯДАМИ ПРИ ОТКРЫТОЙ РАЗРАБОТКЕ МЕСТОРОЖДЕНИЙ.....	7
2.Махмуджонов Улугбек Муроджон ўғли ГЕОЛОГИЯ ВА КОНЧИЛИК САНОАТИДА ХАРБИЙЛАШТИРИЛГАН КОН-ҚУТҚАРИШ ҚИСМИНИНГ ЎРНИ.....	9
3.Худоёрова Дилноза Бомуродовна ЕКОЛОГИК-ГЕОГРАФИК YO?NALISHI.....	12
4.Murodov Nusrat Murtazoyevich, Hasanov Ulug' Ibrohimovich EKIN MAYDONLARIGA ASOSIY ISHLOV BERISHDA ENERGIYATEJAMKOR PLUGLARDAN FOYDALANISH.....	14
5.Mannonova Shaxnoza,Umarova Mahliyo BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA HUSNIXATGA O'RGATISHNING AHAMIYATI.....	16
6.Sodiqova Dilorom Tursunovna MUSLIHABEGIM MISKINNING " EY SHOH, MANI VOLA-YU SHAYDO QILADURSAN..." G'AZALI TAHLILI.....	19
7.Karimova Zebo Saitjonovna GEOGRAFIYA FANINI O'QITISH JARAYONINI TUBDAN O'ZGARTIRISH.....	22
8.Сарвар Пармонов Тошпўлатович, Таймас Мадатов Абсаломович ОЦЕНКА ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ МЕСТНЫХ БЕНТОНИТОВ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ.....	24



ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРОЛОГИЯ СОҶАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ДРОБЛЕНИЯ МАССИВА РАЗНОПРОЧНЫХ ГОРНЫХ ПОРОД КУМУЛЯТИВНЫМИ ЗАРЯДАМИ ПРИ ОТКРЫТОЙ РАЗРАБОТКЕ МЕСТОРОЖДЕНИЙ

1Нутфуллоев Г.С. 2Исматуллаев Н.А.

1Алмалыкский Филиал НИТУ "МИСиС", Узбекистан

**Заведующий кафедрой качество образования Контроль Национального
университета науки и технологи, кандидат технических наук**

тел: (+99890) 647-35-05 E-mail: gafurcom@mail.ru

2Алмалыкский филиал ТГТУ имени Ислама Каримова, мастер горной группы

Тел: (+99894) 424-28-22

Аннотация:Разрушения массива разнопрочных горных пород скважинными зарядами с кумулятивным эффектом. Данный способ позволяет произвести равномерное дробление горных пород по высоте уступа за счет направленного использования энергии взрыва по крепким пропласткам.

Ключевые слова:способ разрушения горного массива, разнопрочный массив, массовый взрыв, взрывчатое вещество, кумулятивный эффект, дробления горных пород.

В основных направлениях экономического развития Республики Узбекистан предусмотрен подъем экономики страны главным образом за счет ускорения научно-технического прогресса и широкого внедрения энергосберегающих технологий. Поиск эффективных путей снижения энергоемкости разрушения горных пород является одним из основных направлений современных научных исследований в горной науке. Ведущую роль в общем технологическом комплексе процессов горного производства занимает процесс рыхления горных пород буровзрывным способом.

Наличие крепких включений в сложноструктурном массиве горных пород затрудняет эффективное использование традиционных методов, так как ведет к большому выходу негабаритов, в связи с чем возникает необходимость разработки и внедрения специальных методов буровзрывной подготовки.

При реализации известных разработанных способов взрывного разрушения массива разнопрочных горных пород не обеспечивается равномерное дробление руды с включением крепких пропластков, что ведет к ухудшению качества подготовки горной массы и повышенным затратам на экскавацию. Применение известных способов взрывания разнопрочных массивов горных пород, включающих определение свойств твердых включений, пределов прочности массива горных пород и крепких включений, бурение вертикальных основных и дополнительных скважин, не обеспечивает достаточной эффективности дробления массива горных пород с различными твердыми включениями.

Вопросы дробления массива разнопрочных горных пород скважинными зарядами взрывчатых веществ (ВВ) с использованием кумулятивного эффекта, разработки способов и эффективных параметров ведения буровзрывных работ



(БВР) в сложных горно-геологических условиях в отечественной и зарубежной литературе недостаточно освещены. Отсутствуют закономерности изменения радиуса действия кумулятивного заряда в зависимости от массы ВВ в скважине, глубины действия кумулятивной струи и плотности заряда, а также свойств взрываеваемого массива горных пород.

В связи с этим разработку способов и определение эффективных параметров БВР при разрушении массива разнопрочных горных пород скважинными зарядами ВВ с использованием кумулятивного эффекта, позволяющих обеспечить равномерность дробления массива по высоте уступа, снизить удельный расход ВВ и затраты на бурение основных скважин, являются актуальной научной задачей и имеют важное практическое значение.

Литература

1. Норов Ю.Д., Нутфуллаев Г.С. Специальная технология буровзрывных работ при строительстве дренажно-канализационной сети в сложных гидрогеологических условиях // Горный журнал. - Москва, - №12, 2010. - С. 21-22.

2. Бунин Ж.В., Нутфуллаев Г.С. Способ взрывного разрушения массива разнопрочных горных пород // Горный информационно-аналитический бюллетень (научно-технический журнал) - Москва, - №4, 2013. - С. 340-344.

3. Бунин Ж.В., Норов Ю.Д., Нутфуллаев Г.С., Заиров Ш.Ш. Определение глубины разрушения крепкого пропластка в массиве разнопрочных горных пород зарядом взрывчатых веществ с кумулятивным эффектом // Взрывное дело - Москва, - №113/70, 2015 С.133-140.

Работы, опубликованные в других изданиях:

4. Норов Ю.Д., Нутфуллаев Г.С., Эшмирзаев А.А. Исследование действия кумулятивной струи при взрыве зарядов взрывчатых веществ в разнопрочных горных породах // Материалы научно-практической конференции "Инновационные технологии горно-металлургической отрасли". - Навои, 21 октября 2011 г. - С. 83-84.



ГЕОЛОГИЯ ВА КОНЧИЛИК САНОАТИДА ХАРБИЙЛАШТИРИЛГАН КОН-ҚУТҚАРИШ ҚИСМИНИНГ ЎРНИ

Махмуджонов Улугбек Муроджон ўғли
Тошкент давлат техника университети
Кончилик иши ва металлургия факультети
1-босқич Магистранти
Ҳарбийлаштирилган кон-қутқариш
отряд командир ёрдамчиси
Телефон: (+99897) 411-04-49

Аннотация: Ушбу тезисда, кончилик саноатида Ҳарбийлаштирилган кон-қутқариш қисм фаолиятининг туганган ўрни, ташкил қилиниши, ваколатлари, камчиликлар ва йечимлар хусусида мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: Фавқулотда вазият, кон-қутқарув хизмати, авария ҳолати, қутқарув ишлари, профилактик ишлар.

Дунёнинг кўпгина ҳудудларида кўплаб содир бўлаётган табиий ва техноген хусусиятли фавқулотда вазиятлар, бу ҳолатларни олдини олиш ва бартараф этиш ишларига янада жиддий аҳамият берилишини тақозо этмоқда.

Республикамиз аҳолиси ва ҳудудларни, шу жумладан саноат корхоналарини фавқулотда вазиятларда муҳофаза қилиш самарадорлигини янада ошириш каби долзарб масалалар бўйича "Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси" кон-қутқарув хизмати тизимида ҳам ўз ваколати доирасида зарурий ишлар олиб борилмоқда.

Ҳарбийлаштирилган кон-қутқариш қисмининг фаолияти Ўзбекистон Республикаси "Ер ости бойликлари тўғрисидаги" Қонунининг 41 бандига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 4 декабр 332-қарори билан тасдиқланган ""Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси" ҳарбийлаштирилган кон-қутқариш қисми тўғрисидаги" Низомга асосан ташкил қилинган.

Ҳарбийлаштирилган кон-қутқариш қисмининг асосий вазифалари саноатнинг хизмат курсатилаётган корхоналарида, асосан тоғ-кон соҳасининг ер ости шароитида авария ҳолати юзага келганда одамларни қутқариш, ёнғинларни ўчириш, портлашлар, газни тўсатдан отилиши оқибатларини, тоғ жинсларининг босиб қолишини тугатиш, ҳамда нафас олиш органларини ҳимоя қилиш воситалари ва маҳсус жихозларни кўллаш талаб қилувчи ишларни бажариш бўйича тез ва кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирларни амалга оширади.

Туну кун навбатчилик ташкил қилинган ва нафас олиш йўллари химоя қилувчи маҳсус асбоб анжомлар билан жихозланган кон-қутқариш қисмининг асосий вазифалари:

- авария содир бўлган конларда одамларни қутқаришда шошилиш чора-тадбирларни бажариш;
- жароҳат олган кишиларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш;
- ер ости ёнғинлари тарқалишининг олдини олиш ҳамда ёнғинни ўчириш, газ ва чанг портлаши, тоғ-зарбаларининг, беҳосдан отилиб чиққан газ оқими, тоғ жинслари кўчиши ва бошқа бахтсиз ходисаларнинг олдини олиш ва бартараф қилиш;
- ер устида содир булган авариялар ер остидаги кончиларга хавф туғдирганда уларга қутқарув хизматини кўрсатиш;
- бойитиш, қадоқлаш ва агломерат фабрикаларида ҳамда бошқа турли тоғ-кон саноат объектларида аварияларни бартараф қилишда қутқарув ишларини бажариш;



-маҳсус жихозлар, нафас олиш аппаратлари воситасида ер ости конлари ва очик конларда техник ишларни бажариш;

-содир бўлиши мумкин бўлган аварияларни олдини олиш ва бу борадаги йуриқномаларни ишлаб чиқиш;

-аварияларни бартараф қилиш режа-тадбирларини тайерлашда бевосита қатнашиб уларни тасдиқлаш;

-давлат миқёсидаги фавқулотда ходисаларнинг олдини олишда иштирок этиш каби вазифаларни бажаради.

Фойдали қазилма бойликларини талофатсиз, ишчилар хаётига хавф солиши мумкин бўлган ҳолатларга йўл қўймасдан қазиб чиқарилиши тоғ-кон қутқарув хизматининг устувор вазифалари қаторига киради. Бу вазифаларни амалга оширишда тоғ- кон қутқарув хизмати қисмлари тегишли корхоналарда бажариладиган зарурий техникавий ва профилактик ишларга алоҳида эътибор қаратади.

Шунингдек, харбийлаштирилган кон-қутқариш қисми алоҳида бўлинмалари хизмат кўрсатилаётган корхоналарда қуйидаги профилактика ишларини бажаради, жумладан:

1.1.Депрессион сёмкалар ўтказиш ва улар асосида шамоллатиш ҳолатини анализ қилиш ҳамда шамоллатишни мукамаллаштириш ва турғунлигини таъминлашга қаратилган тавсиялар ишлаб чиқиш;

1.2.Кон хавоси таркибини текшириш, конларда чанг портлаши хавфлилигини аниқлаш ҳамда ХҚҚҚисмлари аналитик лабораторияларда ҳаво намуналарини анализ қилиш;

1.3.Шамоллатиш ускуналарининг ҳолатини текшириш, аварияларни бартараф этиш режаларига мувофиқ шамоллатиш режимларини синовдан ўтказиш;

2.Эндоген ёнғинлар ҳавсизлиги меъёрларини пасайтириш, Яъни:

2.1.Ўз-ўзидан ёнишга мойил кўмир қатламларини қазиб олишга тайёрлаш ва қазиб олиш ҳужжатлари маҳсус кўриб чиқиш ва уларнинг ижроси устида назорат қилиш;

2.2.Эндоген ёнғинларини олдини олиш ва ўчириш йуриқномаларини ишлаб чиқишда иштирок этиш ва мувофиқлаштириш ҳамда уларнинг бажарилишини назорат қилиш;

3. Экзоген ёнғинлар хавфини пасайтириш;

3.1.Конларда ёнғин ҳавфсизлиги лойиҳаларини мувофиқлаштириш. Конларда ёнғин хавфсизлигига доир комплекс чора-тадбирларнинг бажарилишини назорат қилиш;

4.Корхоналарнинг ёнғинларни бартараф этиш ва одамларни қутқаришга тайёрлик даражасини кўтариш;

4.1.Конларнинг қазиб чиқариш жойларни ва объектларни ёнғинга қарши воситалар билан таъминлаш, авариялар вақтида одамларни қутқариш чораларини кўриш, жумладан:

-ёнғинларни ўчириш, локализация қилиш техник воситаларининг, ёнғинга қарши қувирларнинг жойлаштирилиши, авария вақтида сарфланиладиган сувнинг миқдори ва ҳолатини назорат қилиш;

-инженер техник ходимлар ва ишчиларнинг якка ва гуруҳий ўз-ўзини қутқарув воситаларининг техник ҳолатларини текшириш;

-аварияларни дастлабки вақтларида кон диспетчерларининг махсус программаларга мувофиқ ҳаракатланишини ўрганиш;

-инженер техник ходимлар ва ишчиларнинг ўз ўзини қутқариш ва ёнғинларни ўчириш бирламчи воситаларини қўллашни машқ қилиш;



4.2. Аварияларнинг олдини олиш режаларини ишлаб чиқиш ва мувофиқлаштириш, жумладан:

-аварияларнинг олдини олиш режаларини амалда синаб кўриш;

-конлардан, горизонтлардан, участкалардан ёрдамчи чиқиш жойларининг ҳолатларини ўрганиш;

-аварияларнинг олдини олиш режаларининг конлардаги ҳолатларга мувофиқлигини назорат қилиш;

4.3. Конларда аварияларни бартараф қилиш жараёнида ҲҚҚҚисмлارининг махсус воситаларидан унумли фойдаланишга тайёрлигини назорат қилиш;

5. Хизмат кўрсатилаётган корхоналарда техник хавфсизлиги ҳолатларини белгилаш ишларида иштирок этиш, жумладан:

5.1. Конларда олиб борилаётган қурилишларнинг, реконструкция ишларини авариялардан ҳимояланганлиги жихатларини кўриб чиқиш ва мувофиқлаштириш.

5.2. Содир бўлган аварияларнинг сабабларини ҲҚҚҚисмлари ваколоти доирасида таҳлил қилиш.

5.3. Хизмат кўрсатилаётган корхоналарда техник хавфсизлиги бўйича режалаштирилган, мақсадли ва комплекс текширувлар ўтказиш.

5.4. Конларда қазиб чиқариш жойларини ривожлантириш режаларини ҲҚҚҚисмлари ваколоти доирасида кўриб чиқиш.

5.5. Хизмат кўрсатилаётган корхоналарда аварияларни бартараф қилиш режаларига мувофиқ машғулотлар, ўқув тревогалари ўтказиш каби ишларни бажаради.

-бажариладиган ишлар фаолиятига кўра тоғ-кон қутқарув хизмати ишлаб-чиқариш технологик жараёнининг асосий бўғинларидан бири ҳисобланади.

Шуниндек ҲҚҚҚисм бўлинмалари томонидан:

-хизмат кўрсатаётган корхоналарнинг ишчи ва инженер-техник ходимларига, авария вазиятларида ўзини тутиш қоидалари ўргатилади.

Корхоналарда хавфсизлик қоидаларининг бузилиши ёки қўлланмаларга амал қилмаслик ҳолатларининг асосий қисми корхоналар ёнғинга қарши бирламчи воситалари ва асбоб-ускуналар билан таъминланмаганлиги, шамоллатиш ускуналар ҳамда ёнғинга қарши қўлланиладиган қувурларнинг етишмаслиги, ишчиларни чанг ва чангишдан ҳимояловчи воситалар (сув ва сиқилган хаво аралашмасини пурковчи ижектор) йўқлиги сабаб бўлмоқда.

Ҳозирги кунда асосий кон-қутқариш аппаратлари ва асбоб-анжомлари

ўз хизмат муддатини ўтаб бўлганлиги сабабли, бўлинмаларни янги аппаратлар, асбоб-анжомлар ва автотранспорт воситалари билан таъминлаш зарур.

ҲҚҚҚ тизимида хизмат қилаётган қутқарувчиларни билим ва тажрибасини ошириб бориш мақсадида замонавий ўқув-машғулот базасини ташкил этиш лозим.



ЕКОЛОГИК-ГЕОГРАФИК YO'NALISHI

**Бухоро вилояти Бухоро шаҳарнинг 29-мактаб
география уқитувчиси Худоёрова Дилноза Бомуродовна
тел:91-444-96-97**

Annotatsiya: Bu yo'nalishning vakillari ekolog va geograflar D. N. Kashkarov (1878-1941) va Ye. P. Korovin (1891-1963) edi. O'rta Osiyo cho'llari va baland tog'lari o'ziga xos tabiiy kompleks va "hayot makoni" sifatida qiyosiy ekologik va geografik jihatdan o'rganildi. Bu maktabning ilmiy g'oyalari yangi yuqori bosqichga ko'tarishda O'zbekiston akademiklari zoolog T.3. Zohidov va botanik-geograf hamda ekolog Q.3. Zokirovlar salmikli hissa qo'shdi. T. 3. Zohidov cho'llar ekologik biotsenologiyasi, Q.3. Zokirov esa O'rta Osiyo fitoekologiyasi, o'simlik qoplamini ekologik toifalashtirish hamda integral balandlik mintaqalari (cho'l, adir, tog', yaylov)ni ajratish masalalari bo'yicha o'z yo'riqnomalarini yaratdilar.

Kalit so'zlar: P. B. Baratov, A. A. Rafikov, M. U. Umarov, P. N. Gulomov.

Regional landshaftshunoslik yo'nalishi yuqoridagi uch kompleks yo'nalish va ko'plab tarmoq geografik yo'nalishlarning sintezi sifatida vujudga keldi. Bu yo'nalishga doyr ilk tadqiqotlar 1929-30 yillarda olib borildi. O'rta Osiyo kompleks tabiiy-tarixiy rayonlashtirildi va ayrim yirik hududlarning landshaft haritalari tuzildi. 1943 yil O'rta Osiyoning ekologik tamoyillar asosida majmualiy geografik rayonlashtirish konsepsiyasi va sxemasi yaratildi. 1950-yillar oxiridan O'rta Osiyoni tabiiy rayonlashtirish va landshaft haritalarini yaratish bilan O'rta Osiyo davlat universitetining geograf olimlari shug'ullandilar. 1960-70 yillarga kelib, O'zbekistonda mahalliy landshaftshunos olimlarning safi shakllandi. Ular Moskva (P. B. Baratov, A. A. Rafikov, M. U. Umarov, P. N. Gulomov, A. Mamatov, B.O. Baxriddinov, O. Raxmatullayev, S. Abdullayev, I. Abdug'aniyev), Sankt-Peterburg (A. Saidov, M. Rasulov, Sh. Ergashev, T. Rahimov, Yu. Sultonov), Lvov (L. Alibekov, T. Jumaboyev), Voronej (A. Abdulqosimov), Boku (S. A. Nishonov), Ashxobod (I. Nazarov), Qozon (T. Ollonazarov) va Toshkent (Sh. S. Zokirov, I. A. Hasanov, A. Zayniddinov, A. Soatov) landshaftshunoslik maktablariga mansubdirlar. Ularning har biri muayyan hududlarni rayonlashtirish va landshaft xususiyatlarini tahlil qilish, tabiiy resurslarni baholash bilan shug'ullandilar. Meliorativ geografiya (A. A. Rafiqov, I. A. Hasanov), rekreatsiya geografiyasi (3. Mahamatillayev, A. Zokirov), landshaftlar rekultivatsiyasi (H. Vahobov) va geokimyosi (I. N. Stepanov, O'. Abdunazarov, H. Ma'sudov) bo'yicha ham tadqiqotlar o'tkazdilar.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti tarkibidagi Geografiya ilmiy tadqiqot bo'limi 1958 yildan boshlab geografik tadqiqotlar olib bordi.

Tabiiy geografiya, landshaftshunoslik va ekologiyaga doyr tadqiqotlar Toshkent sh.dan tashqari Samarkand (L. Alibekov, A. Abdulkrsimov. O. Rahmatullayev), Jizzax (S. A. Nishonov), Farg'ona (O. Yu. Sultonov, A. Maqsudov, I. Abdug'aniyev), Buxoro (I. Nazarov), Qarshi (A. Mamatov, S. Abdullayev) va b. shaharlarda ham olib boriladi.

Geomorfologiya. O'zbekistonda geomorfologiya va u bilan bog'liq to'rtlamchi davr shakllanishi geomorfolog Yu. A. Skvorsov va geolog N. P. Vasilkovskiyilar nomi bilan, Respublika geomorfologiyasining keyingi yutuqlari geograf-geomorfologlardan - O. Yu. Poslavskaya, N. A. Kogay, G. F. Tetyuxin, M. M. Mamatqulov, E. D. Mamedovlarning ko'p yillik tadqiqotlari bilan bog'liq.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Preobrajenskiy V. S. i dr., Geografiya v menyayushemsya mire. Vek XX. M., 1997, 274 s; Hasanov H., O'rtaosiyolik geograf va sayyohlar, T., 1964; Qoriyev M., O'rta Osiyo tabiiy geografiney, 2-nashr, T., 1968.
2. Ziyovuddin Akramov, Asomiddin Rafitsov, Shuhrat Azimov.[1]



EKIN MAYDONLARIGA ASOSIY ISHLOV BERISHDA ENERGIYATEJAMKOR PLUGLARDAN FOYDALANISH

Murodov Nusrat Murtazoyevich
TIQXMMI Buxoro filiali professori, t.f.d.,
Telefon:+998(91) 414 21 02
n.murodov@mail.ru
Hasanov Ulug' Ibrohimovich
TIQXMMI Buxoro filiali tayanch doktoranti.
Telefon:+998(91) 444 55 17
Ulugbek.hasanov.1989.@mail.ru

Anotatsiya: Ushbu maqolada tuproqqa asosiy ishlov berish jarayonida takomillashtirilgan qurilma orqali bir vaqtning o'zida ya'ni shudgorlash bilan birga tuproq osti berch qatlamni chuquryumshatgich bilan yumshatishga hamda uning ishlash texnologik jaraylari va afzalliklari haqida keltirilgan.


Kalit so'zlar: plug, yarus ,berch qatlam, korpus, chuquryumshatgich, tovon qatlamini, gipsli qatlam , haydovosti qatlami, ikkilamchi zichlanish, ekspluatatsion, energiya sarfi, flanetslar.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoevning "Qishloq xo'jaligining texnik jihozlanish darajasini yanada oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3459-sonli qarorining ijrosini ta'minlash borasida respublikamiz qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, fermer xo'jaliklarining ekinlardan oladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish uchun zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanishni nazarda tutadigan zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash, mavjudlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy va innovatsion ishlar olib borilmoqda [1].

Dehqonchiligimizning farqli tomonlaridan biri shundaki, u kuchli agroirrigatsion tizimga ega bo'lgan sug'oriladigan yerlardan foydalanib, hosil yetishtirishga asoslangan. Haydaladigan dalalarni to'rtidan uch qismi - bu sug'oriladigan dalalardir. SHuning uchun qishloq xo'jaligining taraqqiyoti kelajakda sug'oriladigan dalalarning hosildorligini oshirish maqsadida mexanizatsiyalashgan jarayonlarni rivojlantirish bilan bog'liqdir. Ma'lumki Buxoro viloyatidahaydov osti qatlamidagi ps, shag'al vaqum bo'lgan 140 ming gektardan ortiq ekin maydonlari mavjud bo'lib, ekinlardan yuqori hosil olishni ta'minlash va tuproqning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash maqsadida bu maydonlarda har yili ning yuqorigi hosildor qismi ag'darib haydalishi, pastki gipsli, shag'alli va qumli qismi ag'darilmasdan va dala yuzasiga chiqarilmasdan 10-15 sm chuqurlikda yumshatilishi talab etiladi.Hozirgi paytda tarkibida gips, shag'al va qum bo'lgan haydov osti qatlamlarni yumshatish maqsadida turli konstruksiyadagi qo'lbola chuqur yumshatkichlardan foydalanilmoqda. Bu mehnat, yoqilg'i va boshqa ekspluatatsion harajatlar sarfini oshishiga hamda tuproqning ortiqcha zichlanishiga olib keladi. SHuningdek mavjud chuquryumshatgichli ishchi organlar orqali ishlov berilganda tuproqda ikkilamchi zich tovon qatlami hosil bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'simlik ildizlarini chuqur rivojlanishiga va yuqori hosil olishga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Hozirgi kunda tuproqqa asosiy ishlov berish, ya'ni shudgorlash bilan birga agregatning bir o'tishida haydov osti qatlamini yumshatish jarayonini amalga oshirish jahon tajribasida o'zining samaradorligini ko'rsatib kelmoqda. Ammo ushbu texnologik jarayonni bajarish uchun mo'ljallangan yoysimon panja ko'rinishidagi chuquryumshatgichlar bilan jihozlangan ikki yarusli PD-3-35 pluglari bir qator texnik va texnologik kamchiliklarga, masalan, shudgorlashda tuproq haydov

osti qatlamida ikkilamchi zich tovon qatlamini hosil bo'lishi olimlarimiz tomonidan isbotlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tuproqqa asosiy ishlov berish jarayonini, ya'ni shudgorlash bilan birga haydov osti qatlamini chuquryumshatish texnologik jarayonini takomillashtirish orqali ushbu jarayonga sarflanadigan energiya sarfini kamaytirish agrar sohadagi dolzarb masalalardan biridir [2]. Ushbu muammoni yechimi sifatida shudgorlash jarayonining o'zida haydov osti qatlamni yumshatish imkonini beradigan konstruksiya ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ma'lumki, ikki qavatli plug yuqoridagi korpusi tuproq qatlamini kesadi, ag'daradi, bo'laklaydi va pastki korpusining oldinga o'tish joyidan hosil bo'lgan jo'yakning pastki qismida chuquryumshatkich ish organi o'rnatiladi. Chuquryumshatkichning kesuvchi tig'i tuproq zichlashgan qatlamini yumshatadi va kesish elementi bilan maydalanish natijasida tuproq qatlamini yoradi. Natijada ma'lum markazga intilma siqilish hosil bo'ladi, bu esa plugning turg'un markazlashishiga sabab bo'ladi va dalani yanada kam energiya sarflab pluglash hamda yumshatishga yordam beradi. Tuproq muhiti tarkibidagi kimyoviy, termal, bakteriologik va boshqa jarayonlar tufayli o'zgaruvchan va beqaror bo'lishi ma'lum. SHuning uchun ishlov beradigan qurilmaning parametrlari ishlov berish vaqtida tuproqning xossasiga mos sozlanishi talab etiladi. SHundan kelib chiqqan holda, kesish elementini ag'darilgan qatlam devoriga $\alpha = 30^\circ$ dan 45° burchak ostida o'rnatish taklif etiladi. Buning uchun kesish elementini shtanga bilan bog'lab turgan ikkita barmoqni va flanetslar yordamida ramaga barmoqlar orqali mahkamlash kifoya qiladi (1-r:



1-plug ramasi, 2- plug yuqori korpusi, 3- pastgi korpus, 4- chuquryumshatkich ustuni, 5- chuquryumshatkichning ishchi organi.

1-rasm. Takomillashgan chuquryumshatkichli plug sxemasi

Taklif qilinayotgan texnik echimning maqsadi tuproqning berch qatlamini yumshatish orqali meliorativ holatini yaxshilash (haydov osti qatlamini bir vaqtning o'zida yumshatish bilan shudgorlash) va shudgorlashda plugni tortishga qarshiligini kamaytirishdan iborat. Ushbu qurilma orqali bir vaqtning o'zida tuproq osti berch qatlamni yumshatishga va plugning harakat turg'unligini yaxshilanishi hisobida energiya tejamkorlikka erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoevning "Qishloq xo'jaligining texnik jihozlanish darajasini yanada oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3459-sonli qarori. 2018 yil 4 yanvar.

2. A.N.Murtazoev "Tuproqqa asosiy ishlov berishda pluglar uchun takomillashgan chuquryumshatkich parametrlarini asoslash" mavzusidagi yosh olimlar loyihasi bo'yicha oraliq hisoboti. 2018.



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA HUSNIXATGA O'RGATISHNING AHAMIYATI.

Mannonova Shaxnoza va Umarova Mahliyo
Navbahor tumani 1-maktab o'qituvchilari
Telefon +998997547105
+998997597910
hamdamovasaltanat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola 1-4-sinflarda ona-tili darslarida husnixatga o'rgatishning qoidalari xususida yozilgan bo'lib, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan. Maqolada Yusuf Xos Xojib asarlaridan foydalanilgan, ona-tili darslariga husnixatga o'rgatishni muvaffaqiyatli natijasi bir qancha vositalari, yozuv usullari xususida yozilgan.

Husnixatga o'rgatish Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturida ham alohida belgilab qo'yilgani yoritib berilganligi ifodalangan.

Maqolada qo'shimcha adabiyotlar hamda internet resurslaridan foydalanilgan ma'lumotlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: "Qutadg'u bilig" asari, to'g'ri talaffuz, orfagrafik ko'nikma, texnik shartlar, ta'limiy shartlar, numanaga qarab yozish usuli, nusxa ko'chrish usuli, yozish malakasini ongli o'zgartirish usuli, DTS.

Xat chiroyli bo'lsa ko'ngil ochilar
O'qish mayli ortar, dillar ovunar
Go'zal xat biriksa balog'at bilan,
Yozilgan bo'ladi kamolot bilan.

Deya to'rtlik bitgan edi Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig" asarida. Buyuk mutafakkir o'z asarida yana shunday degan edi: Xabar berishning eng qulay usuli yozuvdir. Chunki barcha ezgu so'zlar yozuvda jamlangan bo'ladi. Xotirada saqlanadigan ko'plab ezgu so'zlar sababi ham yozuv. Agar bizgacha saqlanib qolgan bu qadar ko'p maktub va yozuvlar bo'lmaganda bilim va hikmatlarni, ilm-fanni ham anglab bo'lmas edi.

Darhaqiqat husnixat inson quvvatining zeynati hisoblanadi. Ona tili darslarida husnixatga o'rgatish savodga o'rgatish davridan boshlanadi. Savodga o'rgatish jarayoni ma'suliyatli davr hisoblanadi. Ma'lumki savod o'rgatish, o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush harflarni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat.

Ona tili darslarida chiroyli yozuv ko'nikmalarini shakillantirish ham bevosita nutq hamda tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Shu tufayli yozuv daftari ham savod o'rgatish jarayonining davrlashtirishga mos ravishda tuziladi. O'quvchilar tayyorlov davrining birinchi bosqichida yozuv chizig'i yordamchi yozuv chizig'i harf elementlarini yozish, elementlar oralig'ini chamalash orqali ular orasida bir xilda masofa qoldirib, hoshiyalar ustidan chizishni mashq qilish orqali qo'lni yozuvga tayyorlash ishlarini bajaradilar. Harflarni elementlarga ajratib tahlil qilish har bir harfning nechta elementdan tuzulganligini, qanday shaklga ega ekanligini, bu elementlar boshqa harflar bilan bog'linishda qanday ko'rinishga ega bo'lishini o'quvchilar tasavvur etadilar.

Orfagrafik ko'nikma va malakalarni muvafqiyatli egallash grafik malakalarning qay darajada shakillanganligiga bog'liq. Ehtiyotsizlik va befarqlik bilan yozilgan chiroyli yozuv o'quvchilarning orfagrafiyasini yana ham pasayishiga olib keladi. Yozuvi hunuk, yozishni yaxshi bilmaydigan bola yozma ishini beparvo, o'ylamasdan yozadi, o'z xatolarini ham sezmaydi. Grafik malakalarni egallamagan o'quvchilarning yozma ishlarida grafik malakalarni yaxshi egallagan o'quvchilarning ishlariga nisbatan imlo xatolar ko'p uchraydi. O'quvchi



grafik malakalarni qanchalik tez egallab olsa to'g'ri yozuv mashqlarini shunchalik muvaffaqiyatli bajaradi.

Grafik malakalarisiz to'g'ri yozuvning bo'lishi mumkin emas. Bola qanchalik chiroyli yozsa, undagi yangi narsalarni o'zlashtirishga qiziqish ortadi, o'z ishiga sinchikovlik va diqqat bilan qaraydi, yozuvni kuzatib boradi. Yozuvini dastlabki paytlarda grafik jihatdangina kuzatsa, keyinchalik orfagrafik jihatdan ham kuzata boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ona tili darslarida doimiy ijodiy izlanishda bo'lishi, ta'limning samarali usullaridan foydalanishi, imkoniyatlardan kelib chiqib husnixat bilan yozishga o'rgatishning qulay usullarini qo'llashi lozim.

Bolalarni yozuvga o'rgatish, o'qishga o'rgatish bilan olib boriladi. Yozuvga o'rgatish jismoniy va aqliy mehnat talab etadigan og'ir jarayon hisoblanadi. Tajriba uzluksiz yozuv bolalar uchun kuchi yetmaydigan meg'natligini ko'rsatadi. Yozuv jarayonida yozuvni mashq qilishning turli usullaridan foydalanish mumkin. Masalan: hoshiya chizish(yozuv daftaridagi hoshiyalarni) xattaxtada (turli xil topshiriqlar asosida har xil o'yin shaklida), havoda yozdirish, ko'rgazmadan foydalanish, tekshirish, xatolar ustida ishlash kabi. Bunday mashq turlari husnixat bilan yozish ko'nikmasini shakillantiradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarni husnixatga o'rgatishning muvaffaqiyatli natijasi bir qancha vositalarga bog'liq bo'lib, ularni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin.

1. Texnik shartlar
 2. Ta'limiy shartlar
- 1-sinf jihozlarini o'quvchilarning bo'y-bastiga mos bo'lishi.

1. Sinf xonasining normal yoritilishi
2. Partada o'quvchilarning to'g'ri o'tirish
3. Ruchkani to'g'ri ushlashi
4. Daftarni 650 qiyalikda bo'lishi
5. Daftar chichiqqlarining aniq va ko'zga tashlanib turishi
6. Ruchka siyohining ko'k rangda bo'lishi
7. Ruchka uchining silliq bo'lishi, siyohni me'yorida chiqarib turishi kabilar.

Ta'limiy shartlar o'qituvchilarning faoliyati bilan bog'liq. Ularda yozuv darsi jarayonida amalga oshiriladigan metodik harakterdagi ishlar kiradi.

1-sinf o'quvchilarining dastlabki harflarida o'qish va yozishga bo'lgan qiziqish kuchli bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning mana shu qiziqishlarini so'ndirmasdan maqsadga to'g'ri yunaltira bilishi lozim. Buning uchun bolalarning fizalogik va psixologik xususiyatlarini o'rgatish talab etiladi.

1-sinf harf yozayotganda shu harflar qaysi elementlardan tuzilganligini bu elementlar qaerdan qaergacha davom etishini, ularning chiziqlar orasida joylashuvini, harflarning o'lchamini o'ylaydi. Bunda u yana ikki narsani:

1. Qo'l harakatini boshqaradi
2. Chiziqdan chiqib ketmaslikni kuzatadi.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf ona tili darslarida husnixat bilan yozishga o'rgatishda quyidagi eng asosiy yozuv usullaridan foydalanilmoqda.

Husnixat bilan yozishga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozishdir. Namuna xattaxtada yoki daftarda alohida-alohida ko'rsatib berish lozim.

O'qituvchi tomonidan har bir harfni bog'lab, uzmasdan yozish, harflarning past-balandligi qay darajada kabi ko'rsatmalar orqali tushuntiriladi.

Namunaga qarab yozish usuli.

Husnixat darslarida berilgan namunalariga qarab yozdirish o'qituvchining vaqtini tejaydi, hamda unumli ishlar uchun imkoniyat yaratib beradi buning uchun har bir o'quvchining oldida darslik bo'lishi kerak.



Nusxa ko'chirish usuli.

Bu metodni harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmagan, yozishda daftar chiziqlaridan patga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llash mumkin. Nusxa ko'chirish usulidan faqat yakka-yakka mashq qilishda foydalanish lozim. Harflarning shaklini tahlil qilish usuli harf va uning elementlarini tashkil qilishni turlicha amalga oshirish mumkin. Harflarni elementlarga ajratib tahlil qilish, har bir harfning nechta elementdan tuzilgan ekanligini, qanday shaklga ega ekanligini, bu elementlar boshqa harflar bilan bog'linishda o'quvchilar tasavvur etadilar.

Yozish malakasini ongli o'zlashtirish usuli.

Husnixat qatorlarini bilish yozuv malakalarining to'g'ri shakillanishiga yaqindan yordam beradi. Husnixat qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o'quvchilar uni to'liq o'zlashtirishlari va amalda qo'llashlari mumkin.

Chiroyli yozuv deganda bir toza, aniq chiziqlar bo'yicha, husnixat namunalarida ko'rsatilgandek yozilgan xatni tushunamiz. Bu usullardan tashqari "Sanoq-ohang" usuli(elementlarni sanash orqali) "Xatolar ustida ishlash" usullaridan ham foydalanish mumkin.

Husnixatga o'rgatish Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturida ham alohida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra 1-sinfda o'quv yilining 2-yarimidan boshlanib husnixat malakalari takomillashtirib boriladi. Shuningdek 2-4- sinflarda esa har bir onatili fani mazmuniga 5-8 daqiqasi "Husnixat daqiqasi"ga ajratiladi.

Shuningdek 1-4-sinfda ona-tili fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumita'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv dasturi kopetensiyalarini shakillantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga moslashtirildi. Bunda yillik o'quv soatlari A1 bosqichida 608 soat bo'lsa A1+ bosqichida esa 680 soatni tashkil etadi. Jumladan, nutq o'stirish va husnixat darslari uchun har bir sinflar kesimida 68 soatdan ajratildi.

Xulosa qilib aytganda, yozish malakasi o'qish malakasiga qaraganda ancha murakkabdir. Boshlang'ich sinflarda chiroyli yozuv malakasini shakillantirish uchun faqat harflar namunasi, husnixat darsliklari bilan kifoyalanib qolmasdan turli texnika vositalari, zamonaviy komp'yuterlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, K. Nazarov, SH. Yo'ldashova "Savodga o'rgatish metodikasi" O'qituvchi -1996
2. M.G'ulomov. "Chiroyli yozuv malakasini shakillantirish" Toshkent -1996
3. K.G'afforova, X.G'ulomova, Q.Eshturdiuva "1-sinfda savod darslari" O'qituvchi -1996
4. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. Toshkent- 2017
5. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari.



MUSLIHABEGIM MISKINNING " EY SHOH, MANI VOLA-YU SHAYDO QILADURSAN..." G'AZALI TAHLILI

**Sodiqova Dilorom Tursunovna- BuxDU O'zbek adabiyoti
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi, Buxoro shahar
6-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
E-mail: erkdil2004@mail.ru
+998936226368**

Annotatsiya: maqolada buxorolik zullisonayn shoira Muslihabegim Miskin ijodida g'azal janrining o'ziga xos xususiyati, undagi mavzular olami, shoiraning ma'naviy-lafziy san'atlardan foydalanish mahorati va badiiy ijodkorligining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: janr, g'azal, och qofiya, to'q qofiya, radif, boqiy, foniy, parvona, Majnun, Laylo, talmeh, tadrij, tazod, tanosub, tashbeh, raddul hashv illal aruz.

Buxorolik zullisonayn shoira Muslihabegim Miskin ijodida g'azal janri salmoqli o'rinni egallaydi. Shoira g'azallaridagi mavzular olami rang-barang bo'lib, ularda asosan Islom va shariat qoidalari ta'rif-u tavsif qilinadi. Muslihabegim Miskin ijodini kuzatar ekanmiz, unda e'tiqod, chin mo'minlik, kamtarinlik, boqiy va foniy dunyo mavzularidagi g'azallardan tashqari ishq va muhabbatni tarannum etuvchi g'azallar ham uchraydi. Jumladan, uning "Ey shoh mani vola-yu shaydo qiladursan..." matlasi bilan boshlanuvchi g'azali bunga misol bo'ladi:

Ey shoh, mani vola-yu shaydo qiladursan,
Ishqingda kuyub munchaki rasvo qiladursan.
Majnun kabi man cho'l-u biyobonni kezibon,
Doim mani jo'yandayi Laylo qiladursan.
Bir xasta g'aribman, sani derman bu jahonda,
Jo'yandayi ul qomati zebo qiladursan.
Devona bo'lub Majnuni hayron bo'la qoldim,
Parda ichidin boz tamosho qiladursan.
Parvonadek sham' jamoliga yurubman,
Xor qilibon kuyunga rasvo qiladursan.
Miskin sani derman bu jahonda, u jahonda,
Ishqingda mani Majnuni shaydo qiladursan [1;212].

Shoira nazdida uning lirik qahramoni, ya'ni oshiq mahbuba ishqida kuyadi, iztirob chekadi.

Ey shoh - ma'shuqa. Oshiqni vola-yu shaydo, rasvo, jo'yandayi Laylo, Majnuni shaydo qilgan. Bu o'rinda "Layli va Majnun" dostoniga ishora mavjud bo'lib, oshiq Layli ishqida Majnun holiga tushgan Qaysga o'xshatilyapti.

Majnun kabi man cho'l-u biyobonni kezibon,
Doim mani jo'yandayi Laylo qiladursan [1;212].

Mazkur misralarda shoira qalbidan kechayotgan tug'yonlarni ham Majnun, ham Laylo obrazlariga kirib, ularning ahvoliga tushib ifoda etadi. Shoira baytda "Majnun", "Laylo" ismlarini keltirib, talmeh san'atining ajoyib namunasini yaratganining guvohi bo'lamiz.

G'azalda Majnun so'zi uch marotaba qo'llanilgan bo'lib, oshiq ishq dardida "men"ligini yo'qotgan. Tadrij san'ati asosida voqealar darajama-daraja rivojlanib, oshiq holini borgan sari yomonlashuviga, hattoki, telba Majnun kuyiga solib qo'yganligiga guvoh bo'lamiz.

Bir xasta g'aribman, sani derman bu jahonda,
Jo'yandayi ul qomati zebo qiladursan [1;212].



Sevgi oshiqni xasta kishiga aylantirsa-da, bu yorug` olamda muhabbatini deydi, undan tonmaydi. Baytda o`xshatish san`atining yorqin namunasini ko`rish mumkin.

Devona bo`lub Majnuni hayron bo`la qoldim
Parda ichidin boz tamosho qiladursan [1;212].

Ishq xastaligi oshiqni Majnundek devona kuyga soladi, ma`shuqa esa uning bu holini parda ichidan kuzatib turgan kabi tasvirlanadi.

Parvonadek sham` jamoliga yurubman,

Xor qilibon kuyunga rasvo qiladursan [1;212].

Mazkur misralarda Muslihabegim oshiq tilidan "Senga parvonadek talpinganim sari mendan uzoqlashasan, o`zingni olib qochasan",- deya fikr yuritadi.

Miskin sani derman bu jahonda, u jahonda,

Ishqingda mani Majnuni shaydo qiladursan [1;212].

Keltirilgan iqtibosda Miskin u dunyoda ham, bu dunyoda ham o`z mahbubini deydi, chunki oshiq mahbuba hajrida Majnunga aylanib bo`lgan.

Olti baytdan iborat g`azal an`anaviy ishqiy mavzuda bitilgan. G`azal tuzilishi jihatidan voqeaband g`azal, g`oyasi va mavzusiga ko`ra oshiqona g`azal sirasiga kiradi. Qofiyalanishi : a-a, b-a, d-a, e-a, f-a, g-a. Yetti o`rinda - matla` va juft misralarda "qiladursan"radifi takrorlangan.

"Shaydo", "rasvo", "Laylo", "zebo", "tamosho", "rasvo", "shaydo" so`zlari qofiyadosh so`zlar. G`azaldagi tirgak tovush, ya`ni raviy- "o" harfi hisoblanadi. "Shaydo", "rasvo", "Laylo", "zebo", "rasvo", "shaydo" so`zlari to`q qofiya, "tamosho" esa yuqoridagi so`zlarga nisbatan och qofiya sanaladi.

"Shoh", "vola-yu shaydo", "ishq", "rasvo", "Majnun", "Laylo", "xasta", "g`arib", "devona", "parvona" so`zlari tanosib sa`atiga go`zal namunadir. Majnun kabi, xasta g`arib, parvonadek so`zlari tashbeh san`ati hisoblanadi.

Shaydo so`zi- 2 marotaba, Majnun so`zi-3 marotaba, jo`yandai so`zi- 2 marotaba, rasvo so`zi- 2 marotaba, ishqingda so`zi- 2 marotaba, mani so`zi- 3 marotaba, sani so`zi- 2 marotaba, jami 54 ta so`z(sodda va qoshma so`zlar)qatnashgan bo`lib, 7 ta so`z 16 o`rinda takror holda qo`llangan.

G`azalda yuqorida sanalgan badiiy san`atlardan tashqari tazod san`ati- san-man, raddul hashv illal aruz- qaytarish san`ti ham uchraydi:

Miskin sani derman bu jahonda, u jahonda,

Ishqingda mani Majnuni shaydo qiladursan [1;212].

Ko`rinib turibdiki, Muslihabegim Miskin yuqoridagi g`azalida badiiy san`atlardan unumli foydalangan, bu esa shoiraning yuksak badiiy mahoratidan darak beradi.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she`riy san`atlar shoir badiiy salohiyatini ko`z-ko`z qilish, uning xilma-xil san`atlardan mohirona foydalanish san`ati usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko`lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g`oyalarni jilolantirish san`atkorligi ifodasi bo`lib kelgan [2;4].

Muslihabegim Miskin nafaqat g`azallarida , balki ruboiy, masnaviy, muxammas, musaddas, mustahzod, tarje`band, she`riy hikoyatlarida ham ma`naviy, lafziy san`atlarning ko`plab qo`llanganligi va she`riy janrlarni yanada boyitganligining guvohi bo`lamiz. Xulosa qilib aytganda, Muslihabegim devonlari nazariy jihatdan o`rganilganda, Ollohga bag`ishlangan, ilohiy ishq tarannum etilgan orifona g`azallar, insoniy muhabbat bilan yo`g`rilgan oshiqona g`azallar sonining boshqa janrlarga nisbatan ko`proq uchrashi kuzatiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo`lyozmalar fondi. Inv.1962. -273 b.
2. A.Hojjahmedov. Mumtoz badiiyat malohati.- Toshkent: "Sharq",1999. -240 b.



GEOGRAFIYA FANINI O'QITISH JARAYONINI TUBDAN O'ZGARTIRISH

**Karimova Zebo Saitjonovna. Namangan viloyati Chust tumani
57- maktab geografiya fani o'qituvchisi**

Annotatsiya: Geografiya faniga bo'lgan e'tibor oxirgi o'n yillikda nihoyatda susayib ketdi. Buni hatto eng ilg'or maktablarimizda ham ko'rgazmali qurollarning yetishmasligida ko'rish mumkin. Elementar geografik xaritalar, globuslar, fanga oid qo'shimcha adabiyotlar yetishmaydi, ko'plab maktablarimizda mutlaqo yo'q. Darsliklarning ahvoli ham havas qilarli darajada emas. Didaktik materiallar ozligi, darsliklarning qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitilmagani hisobiga geografiyadek qiziqarli fan mashg'uloti o'quvchilarni zeriktiradigan darsga aylandi.

Kalit so'zlar: tabiat, iqlim, xalq xo'jaligi, iqtisod, transport, infratuzilma va boshqa ko'plab omillar.

Kuzatuvlarim natijasida shunday xulosaga keldim. Maktablarimizda geografik xaritalardan faqat jahon hamda O'zbekiston siyosiy xaritasi mavjud, xolos. Tabiiy va boshqa turdagi xaritalar ko'zga tashlanmaydi. Markaziy Osiyo, Yevroosiyo, har bir materik uchun alohida tabiiy va siyosiy xaritalar, jahonning tabiiy xaritalarini hatto kitob do'konlaridan ham topish amrimahol. Globuslar haqida-ku, umuman gapirmasayam bo'ladi. Dunyoning tabiiy geografiyasi tasvirlangan globuslarning sobiq ittifoq davrida chiqqan nusxalari saqlab qolinmagan bo'lsa, yangilariga ko'zim tushgani yo'q.

Geografik uskunalar esa yo'q hisobi. Bunday jihozlar mavjud bo'lsa ham respublikamizdagi barmoq bilan sanarli maktablarda uchraydi. U ham, menimcha, fidoyi geograf o'qituvchilarimizning mablag'i va tashabbusi bilan keltirilgan. Kutubxonalarimizda geografiyaga oid badiiy adabiyotlar ham juda oz. Axir Daniel Defoning "Robinzon Kruzoning g'aroyib sarguzashtlari" kitobi, Jyul Vern asarlari, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si, Nosir Xisrav, Marko Polo, Xristofor Kolumb, Fernando Magellan, Kabot, Vasko da Gama, Bartolomeu Diash, F.Dreyk, Laperuz, Kruzenshtern va Lazarev, David Livingston, Redyard Kipling, Charlz Darvin, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Jak Iv Kusto kabi o'nlab, hatto yuzlab buyuk kashfiyotchilar, sayohatchilar, olim-u yozuvchilarga tegishli ma'lumotlar to'plamlari, asarlari bilan kutubxonalarimizni to'ldirsak, bolalarning fanga qiziqishi keskin oshishi aniq.

Fanni o'qitish uslublari esa xuddi boshqa ko'plab fanlar kabi haliyam o'sha-o'sha - primitiv (sodda) uslubda. Videoprojektorlar, ko'rgazmali qurollar va noan'anaviy usullardan faqat ochiq darslarda, fan oyliklarida foydalaniladi. Xullas, hammasi go'yo dekorativ ta'lim, ko'z-ko'z va hisobotlar uchun, xolos.

Geografiya fanini o'qitish jarayonini tubdan o'zgartirish, ko'proq amaliy va tadrijiy yo'nalishga o'tish kerak. Darslar tabiat qo'ynida bevosita tanishuv yo'li bilan olib borilsa, o'quv choraklari oralig'idagi ta'tillarda so'lim go'shalar, tog', ko'l, daryo va cho'llarga sayohatlar amalga oshirilsa (tarix, biologiya fanlarini ham uyg'unlashtirish mumkin), tabiat, iqlim, xalq xo'jaligi, iqtisod, transport, infratuzilma va boshqa ko'plab omillarning rivojlanishi, qonuniyatlari bilan o'quvchilarni bevosita tanishtirib borish imkoni paydo bo'lardi.

O'quvchilarda tabiat qo'ynida o'zini namunali tutish, ekologiya, atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirish orqali yoshlarni Vatanimizga muhabbat ruhida tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

O'quvchilarga elementar usullar - qadimgi ajdodlarimiz bilgan oy, quyosh, yulduzlarga qarab vaqt va joyni aniqlash, gugurtsiz olov yoqish, baliq ovlash, ov va mehnat qurollarini yasash, chodir tikish, kompas, termometr, barometr, flyuger, nivelir va boshqa ko'plab



geografik o'lchov uskunalari haqida ma'lumot berish va ulardan foydalanishni o'rgatish kerak, deb hisoblayman. Tabiat, hayvonot va o'simlik dunyosi bilan munosabat, iqlimda kechayotgan jarayonlarni kuzatish va bunda tabiat qo'ynida o'zini tutishni o'rgatish ham shular jumlasidandir.

Geografiya fani xonalarini jihozlashga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim. O'quvchilarda, albatta, atlas va yozuvsiz xaritalar bo'lishi tabiiy. Lekin sinfxonada kamida o'n xil xarita va globuslar bo'lishi shart. Shuningdek, jonli burchaklar tashkil etilishi, gerbariy va maketlar uchun alohida burchak ajratilishi lozim. Buyuk geograf kashfiyotchilar, fanga ulkan hissa qo'shgan odamlar portretlari, ularning sayohatiga oid stendlar, badiiy adabiyotlar bilan boyitilgan javonlar, geografiya faniga oid jihoz va uskunalar saqlanadigan shkaflar bo'lsa, nur ustiga nur bo'lardi.

Geografiya fanini sizlar uchun qanday o'tsam qiziqarli bo'ladi, degan savolimga o'quvchilar shunday javob berishdi: "Globus va xaritalar kam, ularni ko'paytirish kerak. Darsliklar ham unchalik qiziqarli emas, mavzuga oid rasmlar bilan to'ldirish zarur.

Kompyuterlashgan xona faqat informatika uchun, geografiya fani uchun ham kompyuter va Wi-fi dan foydalanish imkoni yaratilsa, ko'proq qiziqarli ma'lumotlar, o'yinlar, musobaqalar o'tkazilsa, fanga qiziqish oshardi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.ziyonet.uz
2. kitobxon.com



ОЦЕНКА ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ МЕСТНЫХ БЕНТОНИТОВ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ

Сарвар Пармонов Тошпўлатович
Докторант ТашГТУ им. И.Каримова
Телефон: +998 (94) 2240005
parmonovst@mail.ru
Таймас Мадатов Абсаломович
Начальник производства ООО "Bentonite"
Телефон: +998 (93) 4343432
taymas_madatov@mail.ru

Аннотация: На данной статье приведены сравнительные результаты исследования современными методами физико-химических свойств бентонитовых глин различных месторождений. Сравнение различных проб между собой показывает что, химические составы глины формовочных бентонитов различных зарубежных месторождений очень схожие и не сильно отличается от химического состава некоторых месторождений Навоийской области.

Из полученных результатов стало известно, что в химический состав некоторых месторождений Навоийской области и соединения Fe_2O_3 , CaO , SO_3 соответствуют требованиям ГОСТа 28177-89 используемое в литейное производство.

Ключевые слова: Бентонит, литейное производство, каолинит, монтмориллонит, коллоидальность, водопоглощения, огнеупорность, тугоплавкий, легкоплавкий, вязкость, плотность.

Бентонитовая глина используется в металлургической, нефтедобывающей, химической, резиновой, бумажной, фармацевтической и литейной отраслях промышленности, а также в строительстве, сельском хозяйстве и т.д.

В настоящее время литейное производство и горные работы являются крупным потребителем бентонитов, а в перспективе их потребность будет увеличиваться. Это связано с увеличением производства разнообразных машин, станков, аппаратов, приборов и другого оборудования. Для этого, как известно, необходимы многочисленные разнообразные детали, которые изготавливаются из чугунного, стального и другого металлического литья.

Чтобы удовлетворить потребности черной металлургии и технологии подземного выщелачивания необходимо изучить физико-химические свойства местных бентонитов и соответствие их требованиям ГОСТа-28177-89.

Концентрации химических элементов в пробах определены на энергодисперсионном приборе EDX-7000 полуколичественным методом, минералогический анализ проведен на приборе Минерал-7. Концентрация обменных катионов и массовая доля карбонатов определены фотоколориметрическим методом, массовая доля сульфидной серы определена на инфракрасном спектрометре марки SC-144 и гранулометрический состав определен ситовым методом.

Соответствие требованиям, ГОСТ 28177-89 проводится путем тестирования глины формовочных бентонитов (таб. 1), которая включает в себя и регламентирует выполнение подготовки смеси путем перемешивания кварцевого песка и бентопорошка (в пропорции 95 и 5 масс.% соответственно) в катковом смесителе в течение 2 минут в сухом состоянии. Далее следует 18 мин влажного перемешивания при закрытой крышке смесителя с добавлением необходимого количества воды,



обеспечивающего уплотняемость смеси, близкую к 60 %.

После такого перемешивания компонентов смеси с суммарной продолжительностью 20 минут крышка смесителя открывается, и перемешивание смеси продолжается с одновременным отбором проб для определения предела прочности смеси на сжатие во влажном состоянии. Прочность перемешиваемой смеси продолжают измерять каждые 3 минуты до фиксирования максимального значения прочности.

Глины формовочные бентонитвые применяются как формовочное сырье. Они классифицируются последующим признакам - по огнеупорности Химико-минералогические показатели глины формовочных бентонитов по требованию ГОСТ 28177-89

Таблица 1

Наименование показателя	Норма
Массовая доля монтмориллонита, %, не менее	30
Концентрация обменных катионов, мг-экв/100 г сухой глины, не менее	30
Массовая доля карбонатов в пересчете на CaCO ₃ , %, не более	10
Массовая доля сульфидной серы, %, не более	0,3
Массовая доля железа в пересчете на Fe ₂ O ₃ , %, не более	12,0
Коллоидальность, %, не менее	10,0
Водопоглощение, единицы, не менее	1,5

(табл. 2), содержанию оксидов Al₂O₃+TiO₂ в прокаленном состоянии, содержанию красящих оксидов Fe₂O₃+TiO₂ в прокаленном состоянии (табл. 3), содержанию тонкодисперсных фракций, а также по спекаемости, пластичности и по содержанию крупнозернистых включений.

Классификация по огнеупорности глины формовочных бентонитов

Таблица 2

Группы глинистого сырья	Огнеупорность, °С	Обозначение
Огнеупорные	Свыше 1580	О
Тугоплавкие	1350 – 1580	Т
Легкоплавкие	Ниже 1350	Л

Классификация по содержанию оксидов Al₂O₃ + TiO₂ в прокаленном состоянии

Таблица 3



Группы глинистого сырья	Содержание $Al_2O_3 + TiO_2$, %	Обозначение
Высокоосновные	Более 40	Во
Основные	30 – 40	Ос
Полукислые	15 – 30	Пк
Кислые	Менее 15	К

В таб. 4 приведены данные по гранулометрическому составу и массовой доле влаги глины формовочных бентонитов.

Таблица 4

Наименование показателя	Норма
Остаток, %, не более, на ситах сразмером ячеек, мм:	
0,4	3,0
0,16	10,0
Массовая доля влаги, %	6,0-10,0

В литейном производстве применяются глины трех минералогических групп - каолиновые, гидрослюдистые, монтмориллонитовые и состоят преимущественно из водных алюмосиликатов. Стандартом для этих глин принята технологическая классификация, в основу которой заложена связующая способность и термохимическая устойчивость.

Основными компонентами подавляющего большинства формовочных бентонитов являются SiO_2 , Al_2O_3 и H_2O , причем содержание SiO_2 преобладает и достигает, иногда 70 % состава глины.

В таб. 5 приведены химические составы глины формовочных бентонитов некоторых зарубежных месторождений

Химические составы глины формовочных бентонитов различных зарубежных месторождений

Таблица 5

Месторождения					
Хим. состав	Никольское Воронеж	Миллеровское Ростов	Тарасовское Ростов	Дашуковское Украина	Черномор Краснодар
SiO_2	67,7	62,06	65,50	64,52	59,54
Al_2O_3	14,56	18,26	13,74	15,41	17,09
CaO	0,65	2,08	3,05	1,80	2,59
MgO	1,42	2,50	1,94	2,17	0,94
Fe_2O_3	4,83	9,38	6,01	6,60	7,89
$Na_2O + K_2O$	2,56	1,04	1,72	0,28	2,50



В таб. 6 приведены химические составы глины формовочных бентонитов некоторых месторождений Навоийской области

Химический состав глины формовочных бентонитов некоторых месторождений Навоийской области

Таблица 6

Месторождения	Химический состав, %										
	SiO ₂	TiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	MgO	CaO	Na ₂ O	K ₂ O	P ₂ O ₅	SO ₃	ППП
Навбахорское	57,37	0,35	13,69	5,10	1,84	0,48	1,53	1,75	0,43	0,75	16,71
Карманинское	67,63	0,58	15,00	4,94	2,86	1,96	□Na ₂ O+K ₂ O=4,27	-	-	1,32	6,76
Томдытауское	63,8	0,5	12,5	6,43	2,0	1,4	1,2	1,3	<0,01	0,6	10,26
ТомдыII	61,7	0,5	12,9	7,14	2,4	1,3	1,0	1,7	<0,01	0,3	11,05
Сев РУ	58,3	0,71	15,3	6,57	2,4	1,1	2,2	1,6	0,15	<0,4	11,27

В таб. 7 приведены физико-химические свойства глины формовочных бентонитов некоторых месторождений Навоийской области

Физико-химические свойства глины формовочных бентонитов некоторых месторождений Навоийской области

Таблица 7

Образцы	Результаты определения показателей свойства глинистого раствора				
	показатели свойств				
	Плотность □, г/см ³	Условная вязкость Т, с	Фильтрация В, см ² /30 мин	Толщина фильтрацион-ной корки К, мм	Примечание
«Навбахор»	1,11	18,98	25	2,5	Плохая растворимость, умеренная содержания твёрдой фазы (песка)
Томдытау	1,13	18,09	22	4	Нормальная растворимость, умеренная содержания твёрдой фазы (песка)
Томдытау-2	1,12	17,99	21	3	Нормальная растворимость, умеренная содержания твёрдой фазы (песка)



Из полученных результатов исследований физико-химических свойств бентонитов при сравнении таблицы 5 и 6 мы видим, что процентное содержание глины по химическому составу SiO_2 , Al_2O_3 , Fe_2O_3 месторождений Никольское (Воронеж) и Карманинское (Узбекистан) очень схожи. При изучении таблицы 6 следует, что процентное содержание глины по химическому составу Fe_2O_3 , CaO , SO_3 месторождений Навбахорское, Карманинское, Томдытауское, Томды II, Сев РУ соответствуют требованиям ГОСТа-28177-89.

Из полученных результатов исследований физико-химических свойств местных бентонитов таб. 7 видно, что физико-химические свойства глины формовочных бентонитов некоторых месторождений Навоийской области соответствует требованиям и приемлема для технологии НМЗ.

Таким образом, на основании проведенных исследований проанализированы образцы различных физико-химических свойств глины формовочных бентонитов некоторых месторождений Навоийской области. Изучены их химические составы и установлено, что в результате переработки руд различных местных месторождений можно получить глины формовочных бентонитов, соответствующих требованиям ГОСТа-28177-89.

Список использованной литературы:

1. Федоров Н.Н. Методические аспекты определения свойств бентонитовых формовочных глин, // Литье и металлургия № 4 (77). 2014.С.19-23.

2. Федоров Н.Н. Новые технологии в производстве бентонитовых формовочных глин из местного сырья// Вестник ДГМА. Краматорск: ДГМА, 2009.№1 (15). С. 306-311.

3. Мирсултанов М.М.Обвалообразования возникающие в процессе бурения нефтяных и газовых скважин// Горный вестник Узбекистана.2019. №1(76)С. 2-5.

4.Усманов Р.И. К вопросу добычи полезных ископаемых методом пв из слабообводнённых, слабопроницаемых и карбонатных руд//Горный вестник Узбекистана.2019. №1(76)С. 17-20.

5.Санакулов У.К.,Хван А.Б. Производство металлургического глинозема из ангренинских каолинов//Горный вестник Узбекистана. 2019. №3 (78)С. 102-105.

6. Белов В.Д. Литейное производство. Москва. 2015.С.171-173.

7. Мосталыгина Л.В., Елизарова С.Н., Костин А.В., Бентонитовые глины Зауралья: Экология и монография // Монография. Курган 2010.С.6-9.

8.Тошов Ж.Б., Тошниёзов Л.Г., Баратов Б.Н., Очилов С.//Горный вестник Узбекистана. 2018. №1 (72)С. 71-73.

9. ГОСТ 28177-89. Глины формовочные бентонитовые. Общие технические условия.

10. Федоров Н.Н., Дорошенко С.П., Короид В.Н. Физико-механическая активация бентонитовых глин //Литейное производство. №10.2005. - С.17-19.

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

(24-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.05.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000